

MUSTAQILLIK DAVRIDA HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING RIVOJLANISHI

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

imiy xodimi: **Z. Mamadaliyeva**

Haykaltaroshlikning paydo b'lishi ibtidoiy davrga to'g'ri keladi va bu odamlarning mehnat faoliyati, sehrli e'tiqodlari bilan bevosita bog'liq. Ko'p mamlakatlarda topilgan paleolit davridan qolgan (Fransiyadagi Montespan, Avstriyadagi Villendorf, Rossiyadagi Malta, Buret va boshqalar) hayvonlar va ayollarning o'sha davrga mansub bo'lgan turli haykaltaroshlik tasvirlariga oid ilk asarlar namunasi topilgan. Paleolit davridagi Venera, Neolit davridagi haykaltaroshlik yodgorliklari doirasi yanada kengroq bo'lgan. Ular odatda turli qattiq tosh, suyak va yog'ochdan dumaloq haykallar yasashgan, tosh plitalar va g'or devorlariga o'yib rel'yeflar bajarishgan.

Haykaltaroshlik u davrda idishlar, mehnat qurollari va ov qurollarini bezash vositasi bo'lib xizmat qilgan va tumor sifatida ishlatilgan. Rossiya hududida kech neolit va eneolit haykaltaroshligiga misol qilib, keramik plastika odamlarning katta tosh tasvirlari ("tosh ayollar"), bronza, oltin, kumush va boshqa materiallardan yasalgan haykal bezaklarini misol sifatida aytib o'tishimiz mumkin. Haykaltaroshlik mehnat taqsimotining o'sishi va texnologik taraqqiyot bilan bog'liq holda, ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanishi davrida yanada rivojlandi. Bu bosqichning eng yorqin yodgorliklari - skif oltin rel'yeflari, Nok madaniyatining terrakota boshlari, odamlarning tipologik xilma-xil yog'och o'yma haykallaridir. Quldor egalik qiladigan jamiyat san'atida haykaltaroshlik o'ziga xos vazifalar va o'z ish uslubiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi sifatida ajralib turadi. Despotizm g'oyasini ifoda etishga, qat'iy ijtimoiy g'oyani davom ettirishga, xudolar va shohlarning kuchini ulug'lashga xizmat qilgan qadimgi Sharq davlatlari haykaltaroshligi ob'ektiv universal narsaga ega bo'lgan muhim va mukammallikni o'ziga tortdi. Buni Qadimgi Misr haykaltaroshligida ulug'vorlikka to'la ega bo'lgan ulkan harakatsiz sfinkslar, simmetriya va muvozanat printsipiga ko'ra kanonik pozalar va frontal konstruktsiyali fir'avnlr va ularning xotinlari haykallari, zodagonlarning portretlari,

qabrlar va ibodatxonalar devorlarida ulkan rel'yeflar va dafn marosimi bilan bog'liq kichik haykallarda ko'rish mumkin.

Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir choratadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2020-yildagi PQ-4688-son qarori yutimizda ushbu san'atning rivoj topishida katta turtki bo'ldi.

Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik san'ati ham qadimqadimdan o'z o'rniga ega bo'lib bu soha hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Haykaltaroshlik asarlari atrof-muhitdagi hajmli barcha shakllar va detallar bilan aks etadigan tasviriy san'at turidir. Mayda haykaltaroshlik namunasidan tortib, interyer va eksteryerlarda foydalaniladigan turli mahobatli haykallar, yodgorliklar, byustlar, binolarning devolariga ishlanadigan relyeflar, tanga, nishon, medal kabilarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishlari hisoblanadi. Haykaltaroshlik asarlari o'zining ishlatilish joyi, bajaradigan vazifasi va tayyorlanish usuligi qarab har xil nomlanadi. Ular odatda dumaloq va qavariq ko'rinishda bo'lib, dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish imkoni bo'lsa, qavariq haykallarda yuzaga bo'rtirib ishlanganligi tufayli faqat bir tomonlama ko'rish mumkin. Qavariq haykallar relyef deyiladi. Relyef fransuzcha so'zdan olingan bo'lib "yuza" degan ma'noni bildiradi. Relyefli haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda kenglik, tabiat manzaralarining ko'rinishi ham aks etadi. Shuning uchun bunday relyeflarni ba'zan pespektiv relyef deb ham yuritiladi. Haykaltaroshlikning keng tarqalgan material turlaridan biri loy yoki plastilindir.

Bu material turlaridan haykaltaroshlar haykal maketini tayyorlashda, xalq amaliy san'ati ustalari esa o'yinchoqlar va mayda plastika tayyorlashda foydalaniladi. Haykaltaroshlik ham xuddi rangtasvir kabi hayotiy voqea va hodisalarni turli uslub va tasirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalanadi. Haykaltaroshlik asarlarida insonning faqat tashqi korinish, tinch turgan holati yoki harakatdagi paytini aks ettirish bilan kifoyalanmay, undagi ichki kechinmalari, his-hayajon va g'amginlik, kelajakka intilish kabi holatlar ham ifodasini topadi. Haykaltarosh asarida insonning tevarak- atrofga bo'lgan munosabati, psixologiyasi, qalbidagi his-tuyg'ulari ishonarli talqin etiladi. Bunda,

albatta eng avvalo haykaltaroshning o'ta ziyrakligi, tasvirlash qoidalarini puxta egallaganligi, odam gavdasi va mimik o'zgarishlari borasida ayniqsa plastik antomiya sohasidagi yuqori bilimlarga ega bo'lishi taqazo etiladi. To'g'ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat haykalni ta'sirli ifodalash uchun zamin yaratadi. Haykaltaroshda deyarli rang ishlatilmaydi, lekin xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Bunda O'zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo'la oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari monumental, dastgoh va dekorativ haykaltaroshligini tushunamiz. Mahobatli haykaltaroshlik bu katta hajmdagi haykallar, muhim tarixiy voqealar, atoqli shahslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib, mustaqil harakterga ega bo'ladi. Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Mahobatli haykaltaroshlik asarlariga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu asar qahramonlarini ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo'ljallangan bo'lgani sababli ular uzoq turadigan qattiq turadigan tosh, bronza, granit va bitonlardan ishlanadi. Monumental haykaltaroshlikga istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va bog'lar, shuningdek, me'moriy binolarning devorlarini bezash uchun ishlanadigan turli bezak haykallar kiradi; asarlarida ramziy obrazlar, hayvonlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlari yuzasiga ishlanadigan bezaklar, favvora, panjara, badiiy darvozalar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishidir. Dastgoh haykaltaroshlikga mustaqil mazmunga ega bo'lgan, san'atning boshqa turlariga tobe bo'lmagan asarlar kiradi; ular ko'rgazmalar, muzey xonalariga va uylarning interyeriga qo'yish uchun mo'ljallanadi.

Bu tur asarlarda voqelik o'zining butun borlig'i bilan aks ettiriladi hamda inson ruhiyatidagi nozik uzgarishlar, uning ichki kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyati katta. Dastgoh haykaltaroshlik asarlari byust (belgacha bo'lgan portret), tors, haykal (odam gavdasining natural kattalikda ishlangan ko'rinishi), haykalcha (natural kattaligidan kichik bo'lgan haykallar), koloss (haddan ortiq kattalikda ishlangan haykallar,

mas, Rodos kolossi), janrli haykal (muayyan muhitda tasvirlangan odam yoki odamlar guruhi) va boshqa ko‘rinishda bo‘ladi. Kichik shakllar haykaltaroshlikgi o‘z xarakteriga ko‘ra amaliy bezak san’atiga yaqin turadi. Bunga stol ustiga qo‘yiladigan sopol, chinni va boshqa xomashyolardan ishlanadigan haykallar kiradi. Eng ko‘p tarqalgan turlaridan biri terrakota; medal yasash san’ati va gliptika ham shu turga mansub.

Haykaltaroshlikda ijodkor soya-yorug‘dan foydalanish orqali asarning ta’sir kuchini oshirishga erishiladi (nur tushishi bilan haykal yanada jozibali ko‘rinadi, nur yo‘nalishining o‘zgarishi bilan undagi nur-soya tovlanishi ham o‘zgaradi, natijada undan tomoshabin oladigan taassurot ham o‘zgarib boradi). Bu ayniqsa mahobatli va bezak haykaltaroshlik asarlari uchun qo‘l keladi, chunki maydon yoki hiyobonga o‘rnatilgan haykalga ertalabki quyosh nurlari bir joziba bersa, kechki kun botish paytidan quyosh nurlari boshqacha bir fayz kiritadi. Haykaltaroshlik insonning tashqi ko‘rinishi, sokin yoki harakatdagi holatini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi, asarda kechinmalar, hayajon, g‘amginlik va boshqa ham o‘z ifodasini topadi. Haykaltarosh mahorati, to‘g‘ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat asarning ta’sirli bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

Haykaltaroshlik asarlari uchun tosh, granit, bronza, marmar, yog‘och, metall (oltin, kumush, pikel kabi qimmatbaho metallar) sement, gips kabi turli materiallar ishlatiladi.

Haykaltaroshlikda tanlangan xomashyo uning rangini belgilaydi. Xalq haykaltaroshlikdagina haykallarni bo‘yash hollari uchraydi. Haykaltaroshlik asarlari yaratishda yumshoq moddalar (maxsus loy, mum, plastilin va boshqalar), qattiq moddalar (turli nav toshlar, yog‘och va boshqalar)dan kesib (yo‘nib) yoki o‘ymakorlik bilan keraksiz qismlarini olib tashlash yo‘li bilan yaratiladi; suyuq holatdan qattiq holatga o‘tish xususiyatiga ega bo‘lgan moddalar (turli metall, gips, beton va boshqalar)dan qolip yordamida quyib ishlanadi; keramika haykaltaroshlik asarlari tayyorlashda maxsus loy navlaridan foydalaniladi, shakl bo‘yama iaqsh yoki rangli sir bilan qoplanadi va maxsus pechlarda quydiriladi. Haykaltaroshlik asari taglikka (postament yoki pyedestalga) o‘rnatiladi; ba’zan haykaltarosh maqsadini yuzaga chiqarishda bir necha taglikka o‘rnatilgan haykallar, relyeflardan foydalanishi mumkin. Mahobatli va mahobatli-bezak haykaltaroshlik borasida qator asarlar yaratishda tosh, metall, shamot, sopol va boshqa

qattiq materiallardan keng foydalanilgan. O'zbekistondagi har bir me'moriy majmua san'atlar sintezi zaminida shakllantirilishi haykaltaroshlik rivojida muhim o'rin egalladi. Toshkent shahri, viloyatlar va tumanlar markazlarida bosh maydon, yirik xiyobon, ko'chalar va boshqa markazlarda maydonlar tashkil etildi, ularda davlat va fan, madaniyat arboblari yodgorliklar o'rnatildi: Toshkentdagi Pushkin (M.Anikushin), Samarqanddagi Alisher Navoiy va Jomiy (H.Husniddinxo'jayev va V.Lunev) hamda Mirzo Ulug'bek (M.Musaboyev) va boshqa haykallar. Bezak haykaltaroshlikda afsonaviy ajdaho, kiyik va qo'zichoqlar haykallari yaratilib, madaniy, ma'muriy binolarning maydonlariga o'rnatildi (Toshkentdagi O'zbekiston Badiiyot akademiyasi Markaziy ko'rgazmalar zali oldidagi haykallar va boshqa, Samarqand muzeyi oldidagi ajdaho, Buxoro Inturist mehmonxonasi uchun ishlangan relyef va haykallar), favvoralarda haykaltaroshlik ko'rinishlari o'z ifodasini topgan. Dastgoh haykaltaroshlikning portret va animalistika janrlarida A. Boymatov, A.Shoymurodov, A.Ahmedov, aka uka P. va M.Ivanovlar, T. Qosimov, D.Ro'ziboyev, keyinroq Jabborov, T.To'laxo'jayev va boshqa, qoraqalpoq haykaltaroshligida J.Quttimurodov, To'raniyozov va boshqa izlanishlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. 1960—80 yillarda dastgoh haykaltaroshlikning portret, janrli haykal va mayda plastika (haykaltaroshlik)da jonlanish sezildi, uslub va yo'nalishlari kengaydi.

A. Hotamov, T.Esonov, M. Abdullayev, F. Ahmedzyanov, M.Avakyan, M.Rahmonberdiyev, M.Borodina, L. Nesterovich, M. Porub, T.Yorqulov va boshqa shu yo'nalishda ijod qilib tanila boshladilar. Mustaqillik yillarida haykaltaroshlikda yirik badiiy yodgorlik haykallar barpo etildi, ularda ajdodlarning yorqin qiyofalarini yaratishga erishildi. Bu davrda haykaltaroshlikda yaratilgan asarning ilk namunasi O'zbekiston milliy bog'ining so'lim go'shasiga o'rnatilgan Alisher Navoiy haykali bo'lib (haykaltaroshlar E.Aliyev, N.Bandzeladze, V.Degtyarov, 1991), u atrof-muhit bilan uyg'unlikda; ramziy ma'noda barpo etilgan me'moriy qism (ayvon) shoirning mahobatli qiyofasini yanada jonlantiradi. Mahobatli haykaltaroshlikda sarmahsul ijod qilayotgan I.Jabborov, J.

Mirtojiyev va boshqa asarlarida san'atlar sinteziga asoslangan asarlari yuzaga keldi. Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda qad ko'targan Amir Temurning mahobatli

haykallarida sohibqiron obrazi gavdalantirildi; sarkarda "Jaloliddin Manguberdi" (2000), buyuk alloma "alFargʻoniy" (1998, Fargʻona va Quva shahri) "Zahiriddin Muhammad Bobur" (1993, Andijon shahrida), "Abdulla Qodiriy" (1994, Toshkent shahrida), "Choʻlpon" (1997, Andijon shahrida), "Ona" (Jizzax shahrida) kabi yirik yodgorlik asarlarida tarixiy shaxslar qiyofasi, "Alpomish" ramziy haykalida (1999, Termiz shahrida) xalq qahramonining badiiy talqini yaratildi. Dastgohli haykaltaroshlikda zamonaviy va milliy anʼanalar oʻzaro uygʻunlikda rivojlanmoqda, bunda badiiy tasviriylik yetakchi oʻrin tutadi. Haykaltaroshlikda oʻziga xos ijodiy uslubga ega boʻlgan T.Tojixoʻjayev ("Alisher Navoiy", "Ulugʻbek", "Mashrab", "Furqat" kabi buyuk siymolar hamda "Kurash", "Raqs", "Chavandoz" kabi romantik asarlar), D.Roʻziboyev ("Navroʻz malikasi", 2000), J.Quttimurodov ("Ayol", "Amudaryo", "Oqqush", "Avesto" turkumi va boshqalar) va boshqa haykaltaroshlar samarali ijod qilmoqda. Mayda haykaltaroshlikda ham katta muvaffaqiyatlarga erishildi, sopol (terrakota), shamot, chinini, fayans, yogʻoch va boshqalarda asarlar yuzaga keldi. Sh.Moʻminovanning chinini va sopol shakllari nozik hamda tasavvurining rang-barangligi bilan ajralib turadi, N.Qodirov, V. Shurkov va boshqalarning sopol haykalchalari ishlanishi xalq ijodiyotiga yaqinligi, yengil yumori bilan diqqatni oʻziga tortadi. Haykaltaroshlikning oʻzbek xalqidagi eng mashhur namoyondasi, Oʻzbekiston Badiiy akademiyasining akademigi, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi Ilhom Jabborovni misol keltirsak boʻladi. Dastgohli va mahobatli asarlari (portret, tarixiy shaxslar qiyofasi aks ettirilgan) umumlashma va ramziylik yoʻlida yaratilgan. "Xayol" (yogʻoch, 1974), "Mashrab" (yogʻoch, 1974), "Oqshom" (yogʻoch, shamot, 1980), "Dam olish" (shamot, 1982), "Falakning gardishi" (shamot, 1983), "1941—45 yillar" triptixi (shamot, 1985). Toshkentdagi Furqat (bronza, granit, 1982; meʼmori S. Sutyagin), Urgutdagi Navoiy (mis, 1985), Namangandagi Mashrab (mis, 1988), Toshkent (1992), Samarkand (1997) va Shahrisabz (1997)dagi Amir Temur haykallari (bronza; meʼmori F. Ashrafiy), Fargʻonadagi Al Fargʻoniy (bronza, 1998), Toshkentdagi "Ona" (bronza, 1999), Urganchdagi Jaloliddin Manguberdi (2000) haykallari Jabborovning mahobatli asarlaridan. "Mehnat Shuhrati" ordeni bilan mukofotlangan. Hozirgi kunda haykaltaroshning ishlarini respublikamizning eng koʻzga koʻringan joylarida qoʻyilgan.

Shuni aytish joizki, O'zbekiston o'zining qisqa vaqtidagi mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi yutuqlari bilan bir qatorda, mafkuraviy-ma'naviy, madaniy ishlarga e'tiborini kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqori ko'tarmoqda. O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Haykaltaroshlik san'atining o'lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini ijodkor Damir Ro'ziboev faoliyatida yaqqol ko'rish mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san'ati bilan shug'ullangan. Damir Ro'ziboev haykataroshlik olamiga asosan 60- yillarda kirib keldi. San'atkor ijodida shakl va hajmlarning o'ziga xosligini harakatlarni tabiiylik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovligidan ham yaqqol sezish mumkin. Uning bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiyofasini aks ettirgan asarlariga duch kelamiz.

Xulosa: Haykaltaroshlik madaniyat va san'atda katta ahamiyatga ega. Bu sizga uch o'lchovli makonda shaklni aks ettirish orqali his-tuyg'ularni, fikrlarni va g'oyalarni ifoda etishga imkon beradi. Haykallar mavhum, realistik yoki ramziy bo'lishi mumkin. Ular yodgorliklar, favvoralar yaratish, binolar va jamoat joylarini bezash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, haykallar ko'plab muzey kolleksiyalarining ajralmas qismidir. Haykaltaroshlik bizning shaxsiy uslubimiz va didimizni ifoda etish usuli sifatida hayotimizda ham muhim rol o'ynaydi. Ko'p odamlar noyob muhit yaratish uchun o'z uylari yoki ofislari uchun haykallarni sotib olishadi. Umuman olganda, haykaltaroshlik madaniy merosning muhim elementi bo'lib, o'tmish va hozirgi zamonni tushunish va qadrlash hamda kelajakni yaratishga yordam beradi.

Quyida ***"Mustaqillik davrida haykaltaroshlik san'ati rivoji"*** mavzusi uchun **lotin alifbosida** rasmiy ilmiy ishlar uchun mos **foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** keltiriladi. Ro'yxat ilmiy-uslubiy talablarga mos shaklda tuzilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining san'at va madaniyatni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. — Toshkent: O'zbekiston, 1991–2024.

2. Qosimov A. O‘zbek haykaltaroshligi tarixi va taraqqiyoti. — Toshkent: San’at, 2012.
3. Abdullayev I. Hozirgi zamon o‘zbek haykaltaroshligi. — Toshkent: Sharq, 2016.
4. Islomov M. Mustaqillik yillarida tasviriy va amaliy san’at rivoji. — Toshkent: Kamalak, 2019.
5. Raximov S. Zamonaviy o‘zbek haykaltaroshlari ijodi. — Toshkent: Adabiyot Uchqunlari, 2020.